

“MA’NAVIYAT” LEKSIK-SEMANTIK KATEGORIYASIDA SINONIMIYA VA VARIANTLILIK HODISASI

Sharipova Dildora Rashitovna

Navoiy davlat universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20118995>

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasidagi sinonimiya va variantlilik hodisasi, ular orasidagi farq va tafovutlar haqida fikrlar keltirilgan. Tadqiqotda ma’naviyatni ifodalovchi leksik birliklarning o‘zaro ma’no munosabatlari, til birliklarida uchraydigan variantlilik hodisasining yuzaga kelish omillari, uslubiy va kontekstual xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida ma’naviyat leksik-semantik maydonidagi sinonim va variant birliklarning milliy tafakkur hamda madaniy qadriyatlarni ifodalashdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Sinonimiya, variantlilik, sema, leksik birlik, semantik maydon, uslubiy xususiyat, dominanta.

Leksik-semantik sinonimiya bir xil yoki o‘xshash denotativ mazmuni ifodalovchi, biroq shaklan turlicha bo‘lgan birliklar o‘rtasidagi paradigmatic munosabatni bildiradi. Bunday birliklar bir umumiy semantik yadro atrofida birlashadi, ammo ma’no nozikligi, qo‘llanish doirasi, emotsional-ekspressiv rang, uslubiy xoslanish va pragmatik vazifa jihatidan bir-biridan farqlanadi. Shu sababli sinonimiya tilning faqat lug‘aviy boyligini emas, balki ma’no differensiasiyasi va uslubiy tanlov imkoniyatlarini ham namoyon etadi.

Sinonimik qatorning markazida odatda dominanta turadi. Dominanta uslubiy jihatdan nisbatan betaraf, keng qo‘llanadigan, nutqiy faol va umumiy ma’noni eng aniq ifodalovchi birlikdir. Qatorning boshqa a‘zolari esa periferik xususiyatga ega bo‘lib, dominanta ma’nosini toraytiradi, kuchaytiradi, badiiylashtiradi yoki ma’lum diskursga xoslaydi. “Paradigmatic sinonimiya nutqda tanlov erkinligini ta’minlaydi, nutq egasi kommunikativ vaziyatga qarab eng mos variantni tanlaydi va shu orqali fikrning nozik ma’nodosh qirralarini ifodalaydi¹”.

Tilshunoslikda sinonimiya bilan variantlilik ko‘pincha bir-biriga yaqin hodisa sifatida talqin qilinadi, biroq ular mohiyatan farqlidir. “Sinonimiya ma’no yaqinligiga asoslangan bo‘lsa, variantlilik ko‘proq bir birlikning fonetik, grafik yoki morfologik shakldagi farqlari bilan bog‘liqdir²”. Bunday hodisa “Ma’naviyat” leksik kategoriyasida mavjud. Masalan, imon/iymon shakllari variantlilik hodisasiga kirsam, axloq/odob, vijdon/nomus, andisha/ibo singari juftliklar esa umumiy semantik yaqinlikka asoslangan sinonimik munosabatni yuzaga keltiradi. Demak, variantlilikda shakliy tafovut ustuvor bo‘lsa, sinonimiyada ma’no yaqinligi asosiy mezon hisoblanadi. Mazkur tadqiqotimizda har ikki hodisa haqida to‘xtalib o‘tamiz va uni mazkur kategoriyadagi semantik birliklar yordamida dalillaymiz. Avvalo, har ikki hodisaga aniq chegara belgilash ishning ilmiyligini dalillashga asos bo‘ladi.

1-jadval

Sinonimiya va variantlilik o‘rtasidagi asosiy farqlar

¹ Mahmudov.N. O‘zbek tilining katta izohli lug‘ati. – Toshkent: Kafolat print company, 2023.

² Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974.– Б.5.

Sinonimiya	Variantlilik
Umumiy denotativ ma'noga ega bo'lgan turli birliklar orasidagi munosabat	Bir birlikning shakliy (fonetik, grafik, morfologik) ko'rinishlari orasidagi munosabat
Semantik differentsiallik mavjud bo'ladi	Semantik tenglik ustuvor bo'ladi
Nutqda qisman almashishi mumkin	Odatda parallel yoki almashinuvchi shakl sifatida namoyon bo'ladi
Dominanta va periferiya tushunchalari qo'llanadi	Dominanta tushunchasi dolzarb emas
Uslubiy, emotsional va pragmatik farqlar yuzaga keladi	Asosiy farq shakl qatlamiga taalluqlidir
Masalan: axloq – odob; vijdon – nomus	Masalan: imon – iymon

Xulosa qilib aytganda, “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasida sinonimiya hodisasini nazariy talqin qilish uchun semasiologik, uslubiy, pragmatik va lingvoma’naviy mezonlarni birgalikda qo'llash zarur. Mazkur kategoriyada, asosan, ideografik, uslubiy, kontekstual va pragmatik sinonimlar faol. “Variantlilik bilan sinonimiyani farqlash, dominanta va periferik a’zolari aniqlash, qator a’zolarining baholovchi darajasi hamda diskursiv mosligini hisobga olish bu nazariyaning asosiy shartlaridandir³”. “Ma’naviyat” kategoriyasi uchun sinonimiya shunchaki til boyligi belgisi emas, balki qadriyatlarining verbal differensiasiyasi va milliy ongning leksik ifoda tizimidir. Shu jihatdan mazkur hodisani chuqur o'rganish o'zbek tilshunosligida leksikologiya, uslubiyat, aksiolingvistika va leksikografiya sohalarini o'zaro yaqinlashtiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974.– Б.5.
2. Mahmudov.N. O'zbek tilining katta izohli lug'ati. – Toshkent: Kafolat print company, 2023.
3. Shavkat Rahmatullayev, Hozirgi o'zbek adabiy tili: leksikologiya va frazeologiya. Toshkent, 2006.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. IV jildlik. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022.

³ Shavkat Rahmatullayev, Hozirgi o'zbek adabiy tili: leksikologiya va frazeologiya. Toshkent, 2006.